TSUE

# YASHIL
## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, II-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.*
*II-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING AHAMIYATI ........ 12
**Usmonova Zarina**

O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 19
**Zaripova Sabrina Zafar qizi**

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR ........ 25
**Sobirov Shohruh Shuxratovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK TARMOG‘IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO‘SIQLAR VA ISTIQBOLLAR

**Sobirov Shohruh Shuxratovich**
**Buxoro innovatsiyalar universiteti**
**Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi magistranti**

**Ilmiy rahbar: Muxsinov Bekzod Toxirovich, i.f.f.d. (PhD), dotsent**

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston va Buxoro viloyati to‘qimachilik tarmog‘ida integratsiyalashgan menejment tizimini (IMT) raqamli transformatsiya asosida joriy etishning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tarmoqning iqtisodiyotdagi salmog‘i, IMTning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaralari, joriy etishdagi sakkizta asosiy to‘siq (N=100 ekspert so‘rovi asosida) hamda ularni bartaraf etish yo‘llari asoslab berilgan. Natijalar IMTning mintaqaviy modelini ishlab chiqish zaruratini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** integratsiyalashgan menejment tizimi, raqamli transformatsiya, to‘qimachilik klasterlari, ISO standartlari, iqtisodiy samaradorlik, Buxoro viloyati, barqarorlik, eksport.

**Аннотация:** В статье проанализированы практические аспекты внедрения интегрированной системы менеджмента (ИСМ) на основе цифровой трансформации в текстильной отрасли Узбекистана и Бухарской области. Обоснованы значимость отрасли в экономике, экономические, экологические и социальные эффекты ИСМ, восемь основных барьеров внедрения (по данным экспертного опроса N=100), а также пути их устранения. Результаты подтверждают необходимость разработки региональной модели ИСМ.

**Ключевые слова:** интегрированная система менеджмента, цифровая трансформация, текстильные кластеры, стандарты ISO, экономическая эффективность, Бухарская область, устойчивость, экспорт.

**Abstract:** The article analyzes the practical aspects of implementing an integrated management system (IMS) based on digital transformation in the textile industry of Uzbekistan and the Bukhara region. It substantiates the industry’s economic significance, the economic, environmental and social effects of IMS, the eight main implementation barriers (based on an expert survey of N=100), and ways to overcome them. The results confirm the need to develop a regional IMS model.

**Keywords:** integrated management system, digital transformation, textile clusters, ISO standards, economic efficiency, Bukhara region, sustainability, export.

## KIRISH

O‘zbekiston to‘qimachilik tarmog‘i so‘nggi o‘n yillikda jadal o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mamlakat dunyoning eng yirik paxta yetishtiruvchi davlatlaridan biri hisoblanib, avval xomashyo eksportiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bugungi kunda qayta ishlangan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish strategiyasini amalga oshirmoqda. 2017-yildan boshlab hukumat paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimini joriy etdi va 2026-yil boshiga kelib, mamlakatda 120 dan ortiq klaster faoliyat yuritmoqda. Ushbu klasterlarning deyarli barchasi yigirish, to‘qish, bichish va tikuv sexlarini birlashtirgan vertikal integratsiyalashgan korxonalar bo‘lib, ularda IMT joriy etishning barcha shartlari mavjud.

Shu bilan birga, dastlabki kuzatishlar ko‘rsatadiki, ko‘pchilik korxonalarda har bir sertifikat alohida boshqariladi, auditlar alohida o‘tkaziladi, hujjatlashtirish tizimlari o‘zaro muvofiqlashtirilmagan. Bu holat operatsion xarajatlarni 20–25% ga oshiradi, hujjatlar takrorini keltirib chiqaradi va ichki auditlar sonini ikki baravar

ko'paytiradi. Maqolaning maqsadi — IMTni O'zbekiston va Buxoro viloyati sharoitida raqamli transformatsiya asosida joriy etishning samaradorligi, to'siqlari va istiqbollarini ilmiy asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

IMTning iqtisodiy samaradorligi masalasi D. A. Martsinkovskiy, A. G. Pavlova va M. A. Popov ishlarida empirik jihatdan o'rganilgan; ular integratsiya natijasida boshqaruv xarajatlari va auditlar sonining kamayishini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya va Industry 4.0 kontekstida K. Shvab hamda G. Vial tadqiqotlari IMTning raqamli platformalar bilan integratsiyalashuvini asoslaydi. To'qimachilik tarmog'ining barqarorlik talablari BMT va McKinsey hisobotlarida, shuningdek, Yevropa Ittifoqining barqaror to'qimachilik strategiyasida (2022) yoritilgan.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining iqtisodiy rivojlanishi Statistika qo'mitasi va «Uztekstilprom» uyushmasi ma'lumotlarida aks etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda IMTning mintaqaviy — xususan, Buxoro viloyati klasterlariga xos — joriy etilishi, uning to'siqlari va raqamli transformatsiya bilan bog'liqligi yagona tizim sifatida kam o'rganilgan. Ushbu maqola shu ilmiy-amaliy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, statistik umumlashtirish hamda sotsiologik so'rov usullaridan foydalanildi. IMT joriy etishdagi to'siqlarni aniqlash uchun Buxoro viloyati va Toshkent to'qimachilik klasterlarida ekspert so'rovi o'tkazildi (N=100 ekspert). So'rov natijalari asosida to'siqlarning nisbiy ahamiyat indeksi hisoblab chiqildi. Tarmoq ko'rsatkichlarini baholashda Statistika agentligi va «Uztekstilprom» uyushmasining 2025-yil ma'lumotlaridan, samaralarni baholashda esa xalqaro empirik tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik mahsulotlarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi salmog'i yuqori. 2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, tarmoq respublika yalpi ichki mahsulotining 6,2 % ini, sanoat ishlab chiqarishning 15 % ini va umumiy eksportning 12 % ini tashkil etadi; tarmoqda 700 mingdan ortiq kishi doimiy ish o'rniga ega. Bu ko'rsatkichlar to'qimachilikni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida belgilaydi va unda samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish ahamiyatini oshiradi (1-rasm).




**1-rasm. To'qimachilik tarmog'ining O'zbekiston iqtisodiyotidagi salmog'i (2025-yil)[1]**

Buxoro viloyati O'zbekiston to'qimachilik sanoatida salmoqli o'rinni egallaydi: viloyat respublikadagi paxta-to'qimachilik klasterlarining 14 % ini (8 ta klaster), to'qimachilik ishlab chiqarishining taxminan

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va "Uztekstilprom" uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan [31; 32].

10 % ini va tarmoq xodimlarining 12 % ini o'ziga jamlagan. Viloyatdagi yirik korxonalar («Buxoro Cotton Textile», «Gijduvon Textile», «Kagan-Tekstil», «Qorako'l Tekstil» va boshqalar) aksariyat xorijiy investorlar ishtirokida qurilgan bo'lib, ular dastlabki bosqichda ISO 9001 va OEKO-TEX sertifikatlariga ega bo'lishgan.

IMT joriy etilishining amaliy samaralari to'rt guruhga bo'linadi: iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va strategik. Ularning miqdoriy ko'rinishi 1-jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. IMT joriy etilishining to'qimachilik korxonasidagi asosiy samaralari[2]

| Samara turi | Ko'rsatkich | O'zgarish diapazoni |
|---|---|---|
| Iqtisodiy | Boshqaruv xarajatlari | 22% ga kamayadi |
| Iqtisodiy | Hujjatlar takrori / auditlar soni | 35–45% ga kamayadi |
| Ekologik | Suv iste'moli | 20–30% ga kamayadi |
| Ekologik | Elektr energiya sarfi | 15–20% ga kamayadi |
| Ijtimoiy | Ish joyida jarohatlanish | 35–50% ga kamayadi |
| Ijtimoiy | Xodimlar ish bilan qoniqishi | 15–25% ga oshadi |
| Strategik | Brend imidji va eksport imkoniyati | Sifat jihatdan yaxshilanadi |

Ekologik va ijtimoiy samaralarning miqdoriy diapazoni 2-rasmda aks ettirilgan. Suv iste'moli, elektr energiyasi va kimyoviy moddalar sarfining kamayishi to'qimachilik tarmog'i uchun alohida ahamiyatga ega, chunki tarmoq dunyodagi eng ifloslantiruvchi sanoat ro'yxatida ikkinchi o'rinda turadi va bir kilogramm tayyor paxtali mato ishlab chiqarish uchun o'rtacha 150–200 litr suv sarflanadi (2-rasm).




**2-rasm. IMT joriy etilishining ekologik va ijtimoiy samaralari diapazoni[3]**

Nazariy afzalliklarga qaramasdan, amaliyotda IMTni joriy etish bir qator to'siqlarga duch keladi. Muallif tomonidan o'tkazilgan ekspert so'rovi (N=100) natijasida sakkizta asosiy to'siq ajratildi va ularning nisbiy ahamiyati baholandi. Eng yuqori ahamiyatga moliyaviy cheklovlar (85 %) va kadrlar salohiyatining yetishmovchiligi (82 %) ega bo'ldi (3-rasm).

2 Manba: [5; 7; 9; 13] asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.
3 Manba: [13; 17; 18] asosida muallif tomonidan tuzilgan.




**3-rasm. To‘qimachilik korxonalarida IMTni joriy etish to‘siqlari va ularning nisbiy ahamiyati[4]**

O‘rta to‘qimachilik korxonasi uchun to‘liq IMTni joriy etish 80 000–250 000 AQSh dollari atrofida turadi va bu xarajatlarning qaytimi o‘rtacha 18–36 oyda ta’minlanadi. Raqamli infratuzilma kamligi (78 %) va axborot parchalanganligi (75 %) esa zamonaviy IMTning real vaqt rejimida ishlashiga to‘sqinlik qiladi: korxonalarning aksariyati hali 1C yoki oddiy Excel jadvallari bilan kifoyalanmoqda, xalqaro ERP tizimlari (SAP S/4HANA, Oracle NetSuite) esa cheklangan darajada joriy etilgan. Aynan shu sababli IMTni raqamli transformatsiya konsepsiyasi bilan bog‘lash — muammoning ham sababi, ham yechimi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan amaliy tahlil quyidagi xulosalarni beradi. Birinchidan, to‘qimachilik O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog‘i bo‘lib, unda IMTni joriy etish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan sezilarli samara beradi. Ikkinchidan, Buxoro viloyatida IMT hali to‘liq tizim sifatida shakllanmagan — sertifikatlar alohida boshqarilib, sinergetik samara yo‘qoladi. Uchinchidan, IMTni joriy etish sakkizta asosiy to‘siq bilan cheklanadi, ular orasida moliyaviy va kadrlar omillari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi: (1) to‘qimachilik klasterlari uchun IMTning mintaqaviy modelini ishlab chiqish va uni davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlariga kiritish; (2) IMTni joriy etuvchi korxonalarga imtiyozli kreditlar va sertifikatlash xarajatlarini qisman qoplash mexanizmini yo‘lga qo‘yish; (3) oliy ta’lim muassasalarida sifat, ekologik va mehnat xavfsizligi menejeri kadrlarini tayyorlash; (4) ERP/MES tizimlari asosida raqamli IMT platformasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Buxoro viloyati va butun mamlakat to‘qimachilik korxonalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga, eksport salohiyatini kengaytirishga hamda barqaror rivojlanish talablariga muvofiqlashishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.11.2021 yildagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni // URL: https://lex.uz/ru/docs/-5731033

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-8050769

3. Марцынковский Д.А. Оценка экономического эффекта от внедрения интегрированной системы менеджмента // КиберЛенинка. — 2010.

4. Павлова А.Г. Проблема интеграции систем экологического менеджмента и систем менеджмента качества // КиберЛенинка. — 2013.

5. Popov M.A. Digital platforms in integrated management systems. — 2021.

4 Manba: muallif tomonidan o‘tkazilgan ekspert so‘rovi natijalari (2025-yil, N=100).

6. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2016.
7. Vial G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda // Journal of Strategic Information Systems, 2019.
8. McKinsey & Company. The State of Fashion 2023. — 2023.
9. European Commission. EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles. — Brussels, 2022.
10. ISO 9001:2015; ISO 14001:2015; ISO 45001:2018; ISO 50001:2018; ISO/IEC 27001:2022. — Geneva: ISO.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. — 2025 // URL: https://stat.uz
12. “Uztekstilprom” uyushmasi tarmoq hisobotlari. — 2025.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com<br>
Bot: @iqtisodiyot_77<br>
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz